

ISLOM TASAVVUFINING VA MAHALLIY URF ODATLAR BILAN QIYOSIY TAHLIL

Ro'ziboyeva Hulkaroy

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Ushbu maqolada hozirgi Malayziya hududlariga islom dinining kirib kelish, islom dinining kirib kelganidan so'ng mamlakat madaniyati, urf-odatlaridagi o'zgarishlar haqida fikrlar keltirilgan.

Islom dini va madaniyatining ruhi, tamal asosi bo'lgan tasavvuf ilmi, ya'ni islom tasavvufi o'z tarixi, shakllanish va takomillashish jarayoniga ega. Mashoyixi izom va avliyo kiromlarni haqiqat manziliga yetaklagan islomiy tasavvuf – e'tiqod, axloq, fikr, adabiyot, san'at, falsafa, boringki, hayotning turli-tuman jabhalaridan chuqur joy olib keldi. Islom insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'lovchi ta'limotidir.

Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirishgan. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. U "Muqaddima" asarida tasavvuf "suvf" — "jun", "po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero qadimdan tarkidunyo qilgan zohidlar jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar, bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi axli dunyolardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etganlar, deydi.

Tasavvuf va so'fiy so'zlari IX asrning boshlarida yashagan Abu Hoshim So'fiydan boshlab joriy etilgan. Undan oldingi davrlarda bu atama o'rnida "zuhd" (zohidlik, tarkidunyochilik), "taqvodorlik", "parhezkorlik" kabi iboralar ishlatilgan. Misrlik olim Ibrohim Basyuniy "Islomda tasavvufning paydo bo'lishi" nomli kitobida hijriy III–IV asrlarda yashab o'tgan olimlarning tasavvuf haqidagi 40 ta ta'rifini keltiradi. Shu tariqa, tasavvuf islom shariati talablarini ixlos bilan bajargan holda zuhd, taqvo, kamtarlik kabi olijanob fazilatlarni o'zida mujassam etib, nafsni poklash yo'li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilishdan iborat. Islom huquqshunosligida, shar'iy ko'rsatmalarni amalga tatbiq etishda 4 ta yo'nalish bo'lganidek, tasavvufda ham bir necha tariqatlar shakllangan. Mashhurlari – tayfuriya, junaydiya, hakimiya, qodiriya, yassaviyya, malomatiyya, kubroviyya, mavlaviya, naqshbandiya tariqatlaridir. Istiqlol yillarida mamlakatimizda o'tmish merosimizni o'rganish, unga doir asarlarni tarjima qilish, atoqli mashoyixlarning maqbaralarini qayta qurish va ta'mirlashga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, Hakim Termiziy, Najmiddin Kubro, Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Shayx Zayniddin, Zangi ota, Shayx Xovandi Tohurlarning hayoti va ijodlarini chuqur o'rganish, ularning bebaho merosidan xalqimizni bahramand etish borasida ko'plab bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Tasavvufni shakllantirishda va uni har tomonlama rivojlantirishda o'rta asr allomalari Abusayid Abulxayr (967-1049-yillar), Abdulloh Ansoriy (106- 1089-yillar), Ahmad Jom (vafoti 1141-yil), Yah'yo Suhravardiy (1155-1199-yillar), Yusuf Hamadoniy (1048-1140-yillar), Abduholiq G'ijduvoni (1103-1179- yillar), Ahmad Yassaviy (vafoti 1166-yil), Najmiddin Kubro (1145-1221 -yillar), Aziziddin an Nasafiy (XIII asr boshlarida yashagan), Bahouddin Naqshband (1318-1389-yillar), Xoja Ahror Valiy (1404-1490-yillar), Abdurahmon Jomiy (1414-1492-yillar), Xusayn Voiz Koshifiy (1440\50 -1505-yillar), Alisher Navoiy (1441-1501-yillar) kabilarning xizmatlari beqiyos bo'ldi.

Ma'lum-ki, xalifa Usmon zamonasida boshlangan imperiya amaldorlari va ulamolarining mol-dunyo to'plashga bo'lgan hirsining yanada avj olishi islom diniga e'tiqod qo'ygan kishilarning g'ashiga tega boshladi. Islom axloqiga xos bo'lgan insonparvarlik va adolatparvarlik an'analaridan chekinish boshlandi. Insonlarda biror-bir foydali mehnat qilmay, boshqalarning mehnati hisobiga yashash avj olib borgan bo'lsa, boshqa bir guruh kishilar sabr-qanoat, ya'ni zuhd yo'lini tanladilar. Amir va hokimlarning axloqsizligiga qarshi norozilik alomati sifatida tarkidunyo qilib, o'z yurtlaridan chiqib ketdilar. Tarkidunyo qilgan qalandar-darvishlar ijtimoiy hayotdan butkul chetlashib, uzluksiz toat-ibodat bilan shug'ullanib, bu dunyoning barcha lazzatlaridan yuz o'girib, Alloh vasliga yetishni va bundan lazzatlanish g'oyasini zo'r berib targ'ibot va tashviqot qila boshladilar. Ularning ba'zi birovlar dunyo kezib, butun umrlarini safarda, odamlar orasida o'tkazishsa, boshqa birovlar o'z ustozlari, pir-u murshidlari bilan birga turishardi. Ular oila qurmay, bola-chaqa ko'rmay, tilanchilik bilan kun o'tkazishar, nafslarini jilovlab, faqirona hayot kechirishardi. Katta-kichik yig'inlarda yaxshilik va yomonlik haqida va'z aytishardi.

Islom tarixida tasavvuf Umaviylar xalifaligining (661– 750) dunyoviylikiga qarshi norozilik sifatida paydo bo'lgan. So'fiylar islom qonunlariga qat'iy rioya qilganlar va islom fiqhi va ilohiyotining turli maktablariga mansub edilar. So'fiylarning mutlaq ko'pchiligi, sunniy islom tarafdorlari bo'lib qolsa-da, so'fiylik tafakkurining ba'zi yo'nalishlari o'rta asrlarning oxirlarida shia islomiga o'tdi. Bu, ayniqsa, Safaviylar Eronni qabul qilgandan keyin Irfan tushunchasi ostida sodir bo'ldi. So'fiylik ibodatining muhim yo'nalishlari zikr, ya'ni Xudoni zikr qilish amaliyotini o'z ichiga oladi. So'fiylar o'zlarining ma'rifiy faoliyatlari bilan islom dinini yoyishda muhim rol o'ynaganlar.

Zamonaviy davrda so'fiylik tariqatlarining nisbatan kamayishi, salafiylar va vahhobiylar hujumlariga qaramay, so'fiylik islom olamida, ayniqsa, sunniy Islomning neotraditionalcha tarmog'ida muhim rol o'ynashda davom etdi. Tasavvuf atamasi Yevropa tillariga dastlab XVIII asrda sharqshunos olimlar tomonidan kiritilgan.

Tasavvuf musulmonlarning shaxsiy amaliyoti sifatida islomning dastlabki kunlaridanoq mavjud bo'lgan. Karl V. Ernstning fikricha, tasavvufning dastlabki namoyandalari Muhammad (s.a.v)ning o'zi va uning sahobalaridir. Muhammad alayhissalomga bay'at qilish bilan sahobalar o'zlarini Allohga xizmat qilishga bag'ishlagan edilar. Shu qatori islom tasavvufining va mahalliy urf odatlar bilan qiyosiy tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, turli davlatlarning o'ziga xos urf odatlari mavjud. Shu qatori Malayziya davlatining ham o'ziga xos urf odatlari mavjud. Malayziya davlatiga islom dinining kirib kelishi VII-X asrlarga to'g'ri keladi.

O'sha davrda Malayziya ko'plab davlatlar bilan savdo ishlarini yo'lga qo'ygan, ammo boshqa davlatlardan farqli o'laroq Arabiston yarim oroli hamda Malayziya o'rtasidagi savdo aloqalar o'zaro ishonch va hech qanday aldovlarsiz amalga oshirilgan. Buning sababi shundan iboratki: Malay xalqi bilan savdo qilgan Arabiston yarim orolida istiqomat qiluvchi musulmonlarni to'g'ri so'zligi, savdoda yolg'on ishlatmasligi, ozoda yurishi mahalliy aholida chuqur ta'surot qoldirishi sababli islom dini Malayziyaga tinch yo'l bilan kirib kelgan. Shu bois islom dini rasman diniy e'tiqod sifatida XV asrda qaror topdi. Islom dinining tarqalishining yana bir sababi XV asrning boshlarida yarim orolda birinchi mustaqil davlat hisoblangan Malakka sultonligi tashkil topadi. Musulmon shazoda boshchiligidagi islohatlar butun Malakka aholisi o'rtasida islom dinining tarqalishiga olib keladi.

XV asrdan boshlab islom diniga e'tiqod qat'iy rioya qilinishi kuchaygan bo'lsada, islomga erkin tarzda amal qilingan. Islom dinini mahalliy aholi orasida birinchi bo'lib Malakka yarim orolining sohillari, Yava va Sumatra orolining shimoliy qismida yashovchi xalqlar qabul qilishgan. Hozirgi kunga kelib Malayziya asosan Ahli Sunna val Jamoaning Imom Shofeiyy (rahmatullohu alayhi) mazhabiga amal qilishadi.

Islom dini Malayziya xalqining madaniyati, urf-odatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Islom dinining mavqeyi sifatida jamiyati insonparvarlik, rahimdil, mehribon va sabrli xalq sifatida shakllangan. Malayziya xalqining og'ir bosiqqligi turmush tarzining to'g'ri yo'lga qo'yilganligiga ham sabab bo'lib kelmoqda. Bunga albatta dinni to'g'ri yo'lga qo'yganligidadir. Shuni inobatga olish kerakki Malayziya xalqining 61,3% foizi islom diniga e'tiqod qiluvchilardir, qolgan 38,7% esa boshqa din vakillari hisoblanadi. Malayziyada barcha shaharlarda masjidlar barpo etilgan bo'lib, bosh masjid "Masjid Negara" bo'lib u Malayziyaning poytaxti Kuala Lumpurda joylashgan.

Malayziyada masjidlarga katta e'tibor qaratilgan bo'lib oyoq kiyim masjid hovlisiga kirishdayoq yechiladi. Malayziyada katta masjidlarda ayollarga orqa qatorda turib namoz o'qishga ruhsat berilgan. Malayziya xalqining urf-odatlarida ikki hayitdan tashqari hijriy yilning birinchi kuni (yangi yil sifatida) va mavlidni ham bayram sifatida keng nishonlashadi. Malayziyada islom diniga oid bir qancha qonunlar kiritilgan bo'lib, jumladan:

- Malay deb hisoblanishi uchun musulmon bo'lishi kerak.

- Musulmon bo'lmaganlar musulmon kishiga turmushga chiqsalar, islom dinini qabul qilishlari shart.

- Davlat maktablari islomiy ta'lim berishlari shart ammo, musulmon bo'lmaganlar uchun muqobil axloqiy darslar taqdim etiladi.

Bu kabi qonunlar mamlakatni tartibga solib turish uchun xizmat qiladi. Ushbu qonunlarning zamirida biz islom dini Malayziya davlatining nafaqat madaniyatiga, balki uning qonunlarida ham ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Malayziyaga islom dinining kirib kelishi, Malayziya xalqining urf-odatlariga, madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shu tufayli hozir kunda Malayziyada islom diniga e'tiqod qiluvchilar kundan kunga ortib bormoqda. Malayziyada turli millatli davlat bo'lib, unda hind, xitoy, malay xalqlarining madaniyati chambarchas bog'liqdir, lekin shunga qaramasdan Malayziyada asosiy madaniyatlari islomiy hisoblanadi. Islom dini Malayziyaning madaniyati, urf odatlari, iqtisodiyoti, ta'lim tizimi, urf-odatlarini keng miqyosda qamrab olgan. Malayziya xalqining tarixiga nazar solsak islom diniga e'tiqod mamlakatning boshqa davlatlar bilan savdo-sotiqda asosiy vazifani bajargan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Tasavvufga kirish. Darslik//“Yosh kuch” Toshkent-2019 №57890
2. Usmon Turar “Tasavvuf tarixi”//”Istiqlol” №20457
3. Komilov N., Tasavvuf (1-kitob), T., 1999;
4. Juzjoniy A. Sh., Tasavvuf va inson, T., 2001;
5. Haqqulov I., Tasavvuf saboqlari, Buxoro, 2000.